



## PREPARING YOUTH FOR MILITARY SERVICE AND EDUCATING THEM IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM IN UZBEKISTAN

*Khayrullo Orifjonovich Ikromov*

*Senior Lecturer, Andijan State Pedagogical Institute  
Andijan, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** military patriotism, loyalty to the Motherland, respect for the national army, Armed Forces of Uzbekistan, youth education, peace, civic duty, national values, moral education, state policy.

**Received:** 19.12.25

**Accepted:** 20.12.25

**Published:** 21.12.25

**Abstract:** This article discusses the essence of the concept of military patriotism in Uzbekistan, the measures taken to form it, and the urgency of strengthening this feeling in the minds of young people. It is emphasized that military patriotism includes such qualities as love for the Motherland, readiness to preserve the peace of the country, and respect for the national army. The article also analyzes the place of this direction in state policy, its role in the education and upbringing system, and aspects related to civic responsibility. The conclusion notes that military patriotism is a high moral value and a sacred duty for every citizen.

## O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI HARBIY XIZMATGA TAYYORLASH VA ULARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

*Xayrullo Orifjonovich Ikromov*

*Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi  
Andijon, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Harbiy vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, milliy armiyaga hurmat, O'zbekiston Qurolli Kuchlari, yoshlar tarbiyasi, tinchlik, fuqarolik burchi, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, davlat siyosati.

**Annotatsiya:** O'zbekistonda harbiy vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yoshlar ongida bu tuyg'uni mustahkamlash dolzarb masaladir. Harbiy vatanparvarlik - bu Vatanga muhabbat, yurt tinchligini asrashga tayyorlik, milliy armiyaga hurmat kabi fazilatlarni o'z ichiga olishi ta'kidlanadi. Maqolada shuningdek, davlat siyosatida bu yo'nalishning tutgan

oʻrni, taʼlim va tarbiya tizimidagi roli, fuqarolik masʼuliyati bilan bogʻliq jihatlari tahlil etilgan. Xulosa qismida har bir fuqaro uchun harbiy vatanparvarlik yuksak axloqiy qadriyat, muqaddas burch ekanligi qayd etiladi.

## ПОДГОТОВКА МОЛОДЕЖИ К ВОЕННОЙ СЛУЖБЕ И ВОСПИТАНИЕ ЕЁ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

*Хайрулло Орифжонович Икромов*

*Старший преподаватель*

*Андижанского государственного педагогического института*

*Андижан, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** военно-патриотизм, верность Родине, уважение к национальной армии, Вооружённые силы Узбекистана, воспитание молодежи, мир, гражданский долг, национальные ценности, духовно-нравственное воспитание, государственная политика.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается сущность понятия военного патриотизма в Узбекистане, меры, принимаемые по его формированию, а также актуальность укрепления этого чувства в сознании молодежи. Подчеркивается, что воинский патриотизм включает в себя такие качества, как любовь к Родине, готовность сохранять мир в стране, уважение к национальной армии. В статье также анализируется место данного направления в государственной политике, его роль в системе образования и воспитания, аспекты, связанные с гражданской ответственностью. В заключении отмечается, что воинский патриотизм является высокой моральной ценностью и священным долгом каждого гражданина.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va murakkab geosiyosiy jarayonlar sharoitida yurtimiz xavfsizligini, tinchligini saqlash, mustaqilligimizni mustahkamlash har bir fuqaroning, yoshlarning yelkasiga tushayotgan muqaddas burchdir. Men oʻylaymanki, harbiy vatanparvarlik faqat armiya safida xizmat qilish emas, balki Vatanga sadoqat bilan yashash, uning taraqqiyoti uchun astoydil harakat qilish, yurt tinchligini qadrlash demakdir. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va amaliy asoslari Oʻzbekiston Respublikasida puxta shakllangan huquqiy, siyosiy hamda ilmiy-metodik poydevorga tayanadi. Mazkur tarbiya tizimi davlatning milliy xavfsizlik manfaatlari, jamiyat barqarorligi va yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan ustuvor siyosatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu tizimning bosh va fundamental manbai sifatida Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xizmat qilib, unda Vatan himoyasi fuqarolarning muqaddas burchi ekanligi qatʼiy belgilab qoʻyilgan. Konstitutsiyaviy

normalar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsad va vazifalarini belgilash, yoshlarni Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati, qonunlarga hurmat va davlat ramzlariga ehtirom ruhida tarbiyalash uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi[1].

O'zbekiston yoshlariga davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar, ta'lim, tarbiya va harbiy-ma'naviy tadbirlar orqali bizda Vatanga bo'lgan muhabbat, yurt sha'nini himoya qilishga tayyorlik tuyg'usi tobora mustahkamlanmoqda. Harbiy vatanparvarlik tushunchasi men uchun bu - ajdodlar jasoratini qadrlash, tarixdan saboq olish, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviyat bilan yurtga xizmat qilish deganidir[2].

**Asosiy qism.** Harbiy vatanparvarlik - bu fuqarolarning o'z Vataniga bo'lgan sadoqati, uni himoya qilishga tayyorligi, milliy armiyaga hurmati va yurt tinchligi uchun mas'uliyat hissini anglatadi. Bu tushuncha inson qalbida bolalikdan shakllana boshlaydi. Oilada, maktabda, jamiyatda yosh avlodga vatan muhabbati, ajdodlar jasorati, tarixiy xotira, milliy g'urur singdiriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va milliy xavfsizligini ishonchli ta'minlash jamiyat a'zolarining yuksak siyosiy-huquqiy ongi, chuqur vatanparvarlik tuyg'usi hamda kuchli fuqarolik mas'uliyati bilan bevosita bog'liqdir. Vatanni sevish, uning suveren manfaatlarini himoya qilishga doimo tayyor turish, milliy armiyaga nisbatan ishonch va hurmat ruhini shakllantirish harbiy-vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini belgilaydi. Mazkur tushuncha tor doiradagi harbiy xizmat bilan cheklanmay, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun umumiy bo'lgan muhim axloqiy, ma'naviy va fuqarolik burchi sifatida namoyon bo'ladi[3].

O'zbekiston sharoitida harbiy-vatanparvarlik qadriyatlarini rivojlantirish va mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u yosh avlodni milliy g'urur, tarixiy xotira, davlat ramzlariga hurmat hamda Vatan taqdiriga daxldorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu jarayon ta'lim tizimi, qurolli kuchlar, jamoatchilik institutlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi uzviy hamkorlik asosida amalga oshirilib, jamiyatda barqarorlik, tinchlik va taraqqiyotning mustahkam ijtimoiy-ma'naviy asoslarini yaratishga qaratilgan. Yoshlar – har qanday jamiyatning kelajagi, davlat va millatning istiqbolini belgilovchi asosiy kuchdir. Shu bois, ularning tarbiyasi, ilmiy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishi davlat siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat yoshlarning mamlakatni sevish va unga fidoyi bo'lish tuyg'ularini rivojlantiradi, balki ularni milliy qadriyatlar, insonparvarlik va mamlakatni himoya qilishga tayyorlashga yo'naltiradi. Tarixiy xotira va milliy meros ham vatanparvarlik tarbiyasining muhim manbalari bo'lib xizmat qiladi. Amir Temur va Jaloliddin

Manguberdi kabi tarixiy shaxslarning merosi jasorat, fidoyilik va fidoyilikni o'zida mujassam etadi. Vatanparvarlik tarbiyasida milliy tarixga tayanish yoshlarning o'ziga xoslik va o'tmish avlodlar bilan uzviylik tuyg'usini mustahkamlashini ta'kidlaydi. Bu yondashuv vatanparvarlikni mavhum sadoqatdan chuqur ichki qadriyatga aylantirishga yordam beradi.

Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash inson hayoti davomida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan uzluksiz va murakkab ijtimoiy-tarbiyaviy jarayondir[4]. Ushbu jarayonning dastlabki va eng muhim poydevori oila muhitida shakllanib, unda farzand ongiga Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, ota-bobolar merosiga sadoqat kabi fazilatlar singdiriladi. Keyingi bosqichda esa vatanparvarlik tarbiyasi boshlang'ich sinflardan boshlab umumta'lim muassasalarida izchil davom ettirilib, o'quvchilarda fuqarolik ongini shakllantirish, davlat ramzlariga ehtirom, jamiyat va Vatan oldidagi mas'uliyatni anglash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Ta'lim jarayonida tarixiy xotira, milliy qahramonlar siymosi, mamlakat mustaqilligi yo'lida fidoyilik ko'rsatgan ajdodlar faoliyatini o'rganish orqali yosh avlodda Vatan himoyasiga nisbatan ongli munosabat qaror topadi. Natijada vatanparvarlik tarbiyasi faqat muayyan yosh davri bilan cheklanmay, balki insonning butun hayoti davomida rivojlanib boradigan, shaxsning ma'naviy kamoloti va fuqarolik pozitsiyasini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda harbiy vatanparvarlikni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganidan buyon harbiy vatanparvarlik ruhini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan.

Ushbu yo'nalishda O'zbekistonda keng ko'lamlil va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlikka oid mashg'ulotlar, ochiq darslar, "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, faxriy harbiylar bilan uchrashuvlar hamda turli sport musobaqalari orqali yoshlar ongiga Vatanga sadoqat, fidoyilik va mas'uliyat g'oyalari izchil singdirilmoqda. Bu kabi tadbirlar yoshlarning tarixiy xotirasini mustahkamlash, milliy armiyaga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirishga xizmat qilmoqda[5].

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tomonidan yoshlarni harbiy xizmatga ongli va maqsadli tayyorlashga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular doirasida jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish, boshlang'ich harbiy bilimlar, harbiy texnika va taktikaga oid ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur dasturlar yoshlarning nafaqat jismoniy chiniqishini, balki intizom, jamoaviylik va mas'uliyat kabi muhim shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "Yoshlar – kelajagimiz", "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" kabi davlat dasturlarida vatanparvarlik ruhini yuksaltirish, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish hamda

yoshlarni faol ijtimoiy hayotga keng jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu dasturlar orqali yoshlarning tashabbuskorligi, ijtimoiy faolligi va mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik hissini kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harbiy vatanparvarlik – barqarorlik garovi. Har qanday jamiyatda fuqarolarning harbiy vatanparvarlik ruhi qanchalik yuksak bo‘lsa, mamlakatning mudofaa qudrati, ichki barqarorligi va ijtimoiy birligi shunchalik mustahkam bo‘ladi[6].

O‘zbekistonda tinchlikni asrash, milliy manfaatlarni ishonchli himoya qilish hamda xalq farovonligi yo‘lida fidokorona xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar harbiy-vatanparvarlikning yorqin va amaliy timsoli hisoblanadi. Ularning kasbiy mahorati, sadoqati va mas’uliyati jamiyatda Vatanga xizmat qilish g‘oyasini mustahkamlab, yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, harbiy-vatanparvarlik ruhiyatini keng ommaga singdirishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari, madaniyat va ma’naviyat markazlarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ushbu institutlar orqali avlodlar o‘rtasida uzviylik va ma’naviy davomiylikni ta’minlash dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Harbiy-vatanparvarlik tushunchasi faqatgina harbiy xizmatni ado etish bilan cheklanmay, balki yurt tinchligi va xalq osoyishtaligini chuqur anglash, mustaqillik va erkinlik qadrini qalban his etish hamda ularni himoya qilishga doimiy tayyor turishni anglatadi. Aynan shu ruhiyat yosh avlod ongida shakllantirilganida, jamiyatda fuqarolik birdamligi, ijtimoiy mas’uliyat va milliy g‘urur kuchayadi. O‘zbekistonda yoshlarni ana shunday yuksak tuyg‘ular ruhida tarbiyalash va mustahkamlash orqali kuchli, barqaror va birlashgan jamiyatning mustahkam poydevori yaratiladi. Shu bois har bir fuqaro uchun vatanparvarlik nafaqat axloqiy qadriyat, balki muqaddas fuqarolik burchi sifatida e’tirof etiladi.

Harbiy vatanparvarlik bugungi O‘zbekiston jamiyatida eng dolzarb va muhim tushunchalardan biridir. Yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, davlatimiz xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashda har bir fuqaroning, ayniqsa yosh avlodning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida, g‘oyaviy tahdidlar va axborot urushi kuchayib borayotgan bir paytda, vatanparvarlik - milliy ong va mafkuraviy immunitetning tayanchidir.

O‘zbekistonda Prezidentimiz rahbarligida yoshlarning harbiy xizmatga, milliy armiyaga bo‘lgan munosabatini ijobiy shakllantirishga, ularni Vatanga sadoqatli, jasur, irodali va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Har yili o‘tkazilayotgan “Vatan himoyachilari kuni”, “Jasorat maktabi”, “Men yurt posboniman” kabi tadbirlar, harbiy-sport musobaqalar va targ‘ibot ishlari yoshlarning ongida kuchli vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, harbiy xizmatni o‘tab kelgan yigitlarning

jamiyatdagi nufuzini oshirish, ularni mehnat bozorida qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyalash ham harbiy vatanparvarlikni mustahkamlovchi omillardandir[7].

Bunday tizimli chora-tadbirlar natijasida harbiy xizmatga ixtiyoriy borayotgan yoshlar sonining ortib borayotgani quvonarli holatdir. Kelajakda ham harbiy vatanparvarlikni ta'lim tizimiga chuqur singdirish, oila, maktab, OAV va jamoatchilikning birgalikdagi sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish orqali bu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish muhim vazifa bo'lib qoladi. Zero, kuchli armiyaga ega davlat - mustahkam poydevorli kelajak kafolatidir. Vatan tinchligi, xalq osoyishtaligi har bir fuqaroning qalbida g'urur va mas'uliyat tuyg'usini uyg'otmog'i zarur. Chunki Vatanga muhabbat - bu nafaqat so'z, balki amalda sadoqatdir.

**Xulosa** harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bugungi O'zbekiston jamiyati taraqqiyotining muhim ma'naviy, siyosiy va ijtimoiy tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlari jadallashib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda yosh avlodni Vatanga sadoqat, milliy manfaatlarga daxldorlik va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash davlat xavfsizligi va barqaror rivojlanishining ajralmas sharti hisoblanadi. Harbiy-vatanparvarlik tushunchasi mazmunan faqat qurolli xizmat bilan cheklanib qolmay, balki tinchlikni qadrlash, mustaqillik ne'matining qadriga yetish, jamiyat barqarorligi va xalq osoyishtaligini saqlash yo'lida mas'uliyatni chuqur his etish kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etadi.

O'zbekiston Respublikasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, Konstitutsiyada belgilangan normalar, davlat siyosati va amaliy chora-tadbirlar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Vatan himoyasining fuqarolarning muqaddas burchi sifatida e'tirof etilishi yoshlar ongida davlatga sadoqat, qonunlarga hurmat va milliy armiyaga ishonch tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat mudofaa sohasining ehtiyoji, balki jamiyatning umumiy ma'naviy yetukligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uzluksiz va bosqichma-bosqich jarayon bo'lib, uning poydevori oilada shakllanadi. Ota-onaning shaxsiy namunalari, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira va ajdodlar merosiga ehtirom farzand qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usining ilk manbai bo'lib xizmat qiladi. Keyingi bosqichlarda esa ta'lim muassasalari, mahalla, jamoatchilik tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari ushbu jarayonni tizimli ravishda davom ettiradi. Maktab va oliy ta'lim tizimida tarix, huquq, ma'naviyat hamda boshlang'ich harbiy tayyorgarlikka oid fanlar orqali yoshlarning fuqarolik ongini yuksaltirish, davlat ramzlariga hurmatni mustahkamlash va jamiyat oldidagi mas'uliyatni chuqur anglash ko'nikmalari shakllantiriladi.

Mazkur maqolada yoritilganidek, tarixiy xotira va milliy qahramonlar siymosi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining muhim manbai hisoblanadi. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimizning jasorati, fidoyiligi va Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olganligi yosh avlod uchun kuchli ma'naviy tayanch vazifasini bajaradi. Tarixiy merosga tayanish vatanparvarlikni mavhum tushuncha emas, balki shaxsning ichki e'tiqodi va hayotiy pozitsiyasiga aylantiradi. Bu esa yoshlarning o'z millatiga, davlatiga va kelajagiga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatini qaror toptiradi.

O'zbekistonda harbiy-vatanparvarlikni shakllantirishda Qurolli Kuchlar faoliyati alohida ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilarning kasbiy mahorati, intizomi va Vatanga sadoqati jamiyatda ijobiy namuna sifatida qabul qilinib, yoshlar uchun ibrat maktabiga aylanmoqda. Harbiy qismlarda tashkil etilayotgan ochiq eshiklar kunlari, faxriy harbiylar bilan uchrashuvlar, harbiy-sport musobaqalari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarning milliy armiyaga bo'lgan hurmati va ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, harbiy xizmatni o'tab kelgan yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash harbiy-vatanparvarlik ruhining yanada kuchayishiga zamin yaratadi.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan "Yoshlar – kelajagimiz", "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" kabi dasturlar yoshlarni ijtimoiy faollikka, tashabbuskorlikka va mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik hissini kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu dasturlar doirasida yoshlarning nafaqat harbiy-jismoniy tayyorgarligi, balki intellektual salohiyati, ma'naviy immuniteti va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada harbiy-vatanparvarlik jamiyatda barqarorlik, ijtimoiy birlik va milliy birdamlikni ta'minlovchi muhim omilga aylanmoqda.

Umuman olganda, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lida strategik ahamiyatga ega bo'lgan uzviy va ko'p qirrali jarayondir. U yosh avlodni Vatanga sadoqatli, irodali, ma'naviy yetuk va mas'uliyatli shaxslar etib tarbiyalash orqali davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga, jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni saqlashga xizmat qiladi. Harbiy-vatanparvarlikning yuksak darajada shakllanishi fuqarolik birdamligi va milliy g'ururni kuchaytirib, g'oyaviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlaydi.

Shu bois kelgusida ham harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini takomillashtirish, uni ta'lim tizimi, oila, mahalla va jamoatchilik faoliyati bilan yanada uyg'unlashtirish muhim vazifa bo'lib qoladi. Zero, Vatan tinchligi va xalq osoyishtaligi har bir fuqaroning qalbida mas'uliyat va g'urur tuyg'usini uyg'otgan taqdiridagina kuchli, barqaror va istiqbolli jamiyat barpo etish mumkin bo'ladi. Vatanga muhabbat esa nafaqat so'zda, balki amaliy harakatda namoyon bo'ladigan yuksak fuqarolik burchi sifatida yosh avlod ongida mustahkam qaror topmog'i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori O'quvchi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida 19.11.2024

3. 3.O'zbekistonda harbiy-vatanparvarlik harakatini tashkil etish borasida islohotlarning yangi bosqichi X.O. Ikromov

Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.

Orifjonovich, I. X., Nafisa, I. (2024). Yangi O'zbekistonda Inson huquqlariga e'tibor. Yangi O 'zbekiston ustozlari, 2(30), 492-494.

5.Orifjonovich, I. X., Nafisa, I. (2024). O'zbekistonda Inson huquqlariga e'tibor hamda shu sohadagi yutuqlar. Yangi O'zbekiston ustozlari, 2(30), 495-197.

6.Ikromov, X. (2024). Harbiy-vatanparvarlik harakati. Talqin va tadqiqotlar, 1(1)